

## FORTEPIANONI IJRO ETISHDA DINAMIK BELGILAR

**Achilova Dilbar Mirazimovna**

*Respublika musiqa va san'at kolleji*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada musiqa san'atining inson hayotida tutgan o'rni va uning ruhiyatiga ta'siri haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, musiqa asarini ijro etish jarayonida dinamik belgilar va musiqiy bezaklarning ahamiyati hamda o'rni to'g'risida ham fikr-mulohazalar bildiriladi.*

**Kalit so'zlar:** *musiqa, badiiy g'oya, shakl, dinamika, belgi, bezak, nota, ritm, tovush, tembr.*

Musiqa asarining ijrosi yoqimli bo'lishi yoki biror musiqiy obraz ta'sirini boyitib, tinglovchilarga eshittirish, tovushning qanday kengaytirilishini ko'rsatish uchun musiqa maxsus belgilar qo'llaniladi.

Musiqa san'ati ko'p asrlik madaniyatimizning, umuminsoniy qadriyatlarimizning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Musiqa ayniqsa insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg'ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Musiqa turli kayfiyatlar, masalan, shodlik, xursandchilik, ko'tarinkilik, tushkinlik, g'am-qayg'ulik va boshqa holatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Musiqa qat'iyatlilik, intiluvchanlik, vazminlik, xushchaqchaqlik kabi insoniylik sifatlarini ham o'zida aks ettiradi. Har bir musiqiy asar ijrochi tomonidan maromiga yetkazib ijro etilsagina tinglovchi uni maroq bilan eshitib, undan zavq oladi. Musiqaning muhim jihati ham shundaki, u eng avvalo his-tuyg'ular bilan bevosita bog'lanadi, qolaversa o'rganilayotgan har bir musiqiy asar yuksak insoniylik va ma'naviy poklikni namoyish etadi. Musiqa san'ati u bilan shug'ullanuvchilardan yuksak insoniylik, ma'naviy poklik va nihoyatda nozik didni talab etadi.

Ushbu belgilar nomlari italyanchadan olingan bo'lib, ular **dinamik belgilar** deb ataladi. DINAMIKA (musiqada) - 1) muayyan asarning nota yozuvida va bevosita uni ijro etishda tovushlar sadolanishi kuchi (baland-pastligi) ning o'zgaruvchanligi; 2) shu o'zgaruvchanlikni ifodalovchi belgilar majmui; 3) mazkur jarayonni o'rganuvchi ta'limot. Dinamik belgilar quyidagicha yoziladi va talaffuz qilinadi:


*p (piano)* – mayin, kuchsiz, ohista;

*pp (pianissimo)* – juda mayin, juda kuchsiz;

*mp (mezzo piano)* – kuchsizroq (*pianodan* kuchli, *fortedan* kuchsizroq);

*f (forte)* – qattiq, kuchli;





*ff (fortissimo)* – juda qattiq, juda kuchli  
*mf (messo forte)* – qattiqroq, kuchliroq  
*cr (kreshchendo)* – tovushni tobora kuchaytirib borish  
*dim (diminuendo)* – tovushni tobora kuchsizlantirib borish  
*sf (sfortsando)* – ayrim tovushlarni to‘satdan kuchli ijro etish.

Legato (liga) – lotinchada liga – «bog‘layman» ma‘nosini anglatadi, ya‘ni tovushlarni uzmasdan ijro qilish:

Stakkato – italyanchada *stakkato* – «ajratilgan», «alohida» ma‘nolarini anglatib, tovushlarni qisqa-qisqa, uzib ijro etiladi. Bunda tovushning tagiga yoki ustiga nuqta qo‘yiladi.

Fermata – italyanchada *fermata* – «to‘xtash», «to‘xtab turish» ma‘nolarini bildiradi. Bu belgi biror tovush, pauzaning tagiga yoki ustiga qo‘yiladi. Fermata qo‘yilgan nota yoki pauza asarning xarakteriga qarab, bir yarim va ikki barobariga cho‘zib ijro qilinadi.

> Aksent – notani kuchliroq, tovushni ajratib ijro etish belgisi.

Portamento – notani sal cho‘zibroq, klavishni chuqurroq olishga undaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.Turg‘unova. Cholg‘u ijrochiligi. Toshkent. 2020.
2. V.Vaxromeev. Muzikaning elementar nazariyasi. Toshkent. “O‘qituvchi”, 1980
3. Sh.Raximov, A.Lutfullaev. Cholg‘ushunoslik. Toshkent. “Asian Book House”.2020.

